



Iste'dod uchqunlari qobiliyatlarni o'stirish orqali shakllanadi

Choriyeva Dilfuza Jo'raqulovna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani

69-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini erta anglash, aniqlash, ularni o'stirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim tavsiyalar bayon etilgan. Maqola maktab amaliyotchi psixologlari, pedagoglar, ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Iste'dod, qobiliyat, qobiliyatni o'stirish usullari.

Bolaligida erisholmagan orzularini o'z bolalarida ko'rish – ota-ona hayotining buyuk, o'lmas va muqaddas qonuni. Modomiki, arab adibi Xalil Jebron ta'tabiri bilan aytganda, “Ota-ona – kamon, farzand esa – shu kamondan otilgan o'q” ekan, o'q kamon ko'rib, yeta olmagan kelajakda yashaydi, demak, u kamondan ko'ra ilg'orroq, yuksakroq bo'lishi tabiiy. Bolalarning kattalardan, yoshlarning ulug'lardan ustunligi ham shunda. Biroq “jonli o'q” ning nechog'li puxta bo'lishi, qanchalik yuksak parvoz etishi har doim ham “kamon”ga, yani kattalarga bog'liq. Hali bolaligidanoq tengdoshlaridan ajralib, cheksiz xayolot osmoniga parvoz qilayotgan bolalarni uchratamiz. Ular ota-onaning yoki tarbiyachining tanbehlariga quloq solmay, to'polon qilish o'rniga o'zlarini qiziqtirgan narsalar ustida bosh qotirayveradilar. Iste'dod uchqunlariga xos xususiyat ayni shunda, ya'ni ular doimo aqliy ozuqaga tashna bo'ladi. Ba'zi katta odamlar uchun murakkab sanalgan aqliy mushohadalar ular uchun oddiy o'yindek ko'rinadi. Fan olamida kutilmagan kashfiyot qilinsa, yuksak saviyadagi adabiy, tasviriy yoki musiqiy asar yaratilsa-yu, uning muallifi maktab o'quvchisi



yoxud yosh olim bo'lsa qani edi! Biroq mingdan bitta uchraydigan noyob iste'dodlini qidirish yoki tarbiyalashga e'tibor qaratish muhimroqmi yoxud har bir bolada yashiringan mo'jizaviy imkoniyatlarni uyg'otib, ularning zamon talablariga javob beradigan yetuk kadr bo'lib tarbiyalanishini ta'minlash zarurmi?

Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat siyosatida insonning ana shunday yuksak taraqqiy etgan individual psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, oilada komil farzand, jamiyatda yetuk malakali, qobiliyatli va yaratuvchan kadrlar har qaysi zamonda ham xalqning azaliy orzusi, maqsadi bo'lgan. Xalq ta'limi tizimini isloh qilishda qo'yilayotgan yangi qadamlar zahirida ham yuqori saviyadagi bilimdon va kashfiyotchi-iste'dodli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Xususan, 2020-yilning 23-sentabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining mazmun-mohiyati bugungi kun pedagoglaridan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va erkin ijod qilishga, yaratuvchanlikka o'rgatish, qobiliyatli, iste'dodli o'quvchilarni izlab topish va ularni o'stirish, har bir o'quvchining o'z qiziqqan sohasini aniqlab, shu yo'nalishda jamiyatga kerakli komil inson qilib yetishtirishdek juda katta mas'uliyatli hamda mashaqqatli vazifalarni talab etadi¹. Mazkur talabni bajarish, nafaqat o'qituvchilarning, balki ota-onalarning ham mas'uliyati, burchi hisoblanadi.

Avvalo, ota-ona farzandida mavjud iste'dod uchqunlarini erta anglab, uni taraqqiy etishi uchun bolaga e'tibor va shart-sharoit yaratib bermog'i lozim. Olimlarning takidlashlaricha, iste'dod qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Aslida iste'dod – qobiliyatlarning tug'ma (irsiy) kurtaklari bo'lib, ular odamning biror faoliyat sohasida ayniqsa katta muvaffaqiyatga erishuviga imkon beradi va bir xil sharoitda shunday faoliyat turi bilan shug'ullanayotgan kishilar orasidan uni ajratib ko'rsatadi. Yuksak darajada rivojlangan iste'dodlar odamga muayyan faoliyat turini ijodiy



suratda amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni yangilik yaratadi. Bunday kishilarda hamisha ijodiy xayol yuksak rivojlangan bo'ladi. Ulardagi iste'dod Aleksey Maksimovich Gorkiy tabiri bilan aytganda "ishga, mehnat jarayoniga bo'lgan muhabbat" tarzida namoyon bo'ladi. Bunday muhabbat bor joyda faoliyatda unumdorlik, rivojlanish, yuksalish, taraqqiyot va yangilanish sodir bo'laveradi. Iste'dod nihollariga zarar yetkazmaslik uchun, boladagi qiziqishlarni so'ndirmasdan, balki uning osoyishta va erkin barq urib yashnashiga imkon yaratishda nihoyatda katta ehtiyotkorlik va o'tkir pedagogik mahorat talab etiladi-ki, bunda maktab-oila hamkorligi qo'l keladi. Negaki, noyob iste'dod egasining o'z tengdoshlariga xos bo'lmagan fazilatlariga ortiqcha baho berish, e'tibor qaratish, ko'p maqtash bolaga salbiy ta'sir e'tib, uni uyatchan, tortinchoq yoki, manmanlik va takabburlikka yetaklaydi. Har qaysi iste'dod boladagi umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'stirish zahirida rivojlanadi.

Qobiliyat - bu faoliyatda uning muvaffaqiyatli amalga oishish darajasini ta'minlovchi layoqatning individual psixologik xususiyatlari asosida shakllanib boruvchi voqelikdir³. Qobiliyatning maxsus ma'nosi deganda, odatda murakab tuzilma, shaxsni tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy faoliyatning muayyan bir turiga yaroqliligini ta'minlovchi psixologik xususiyatlar majmuasi tushuniladi. Ya'ni maxsus qobiliyatlar rivojlanishi yuksak iste'dodni keltirib chiqaradi.

Shuni unutmaslik kerakki, psixologiya fanida isbot etilganidek, qobiliyat va iste'dod o'sishining o'ziga xos belgilari bor, bular faqat va faqat faoliyatda ko'rinadi, shakllanadi va rivojlanadi. Vaholangki, samarali va maqsadli tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni, mustaqil mehnat hamda tinimsiz izlanishlar tufayli har bir bola ko'zlagan cho'qqi zabt etiladi. Gegel, Nyuton, Eynshteyn, Charlz Darwin, Mendeleyevlarning hayotidan bu narsa ma'lum. Demoqchimizki, boladagi u yoki bu qobiliyatni, iste'dodni belgilashda maxsus pedagogik-psixologik tashxislarni talab etib, ular yoramida tarbiyalab, o'stirish, rivojlantirish mumkin².



Qobiliyatlar esa, shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli o'rganishini hamda shu sohada kamol topib borishini belgilovchi, garchi o'zgaruvchan bo'lsa ham, yetarli darajada barqaror shaxsiy sifatlarning birikmasidan iborat bo'lib, ular har tomonlama va bir tomonlama shakllangan bo'ladi. Qobiliyatlarning shakllanishi va taraqqiyoti, ularning shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini aniqlash psixologiya oldidagi muhim vazifalardan biridir. Xususan, yuksak har tomonlama qobiliyatli bolalar shaxsiga xos xususiyatlar mavjudki, ularni aniqlash, rivojlantirish orqali shaxsning qobiliyatlari o'stiriladi, ular:

- ziyraklik, tartiblilik va qunt bilan ishlashga doimiy tayyorgarlik. Keyingi xususiyatlar ham shu fazilatlardan kelib chiqadi.
- Bolaning fikrlash tarzini belgilovchi aqliy tezkorlik, tahlil qilish, umumlashtirish va mahsuldorlik;
- Bolaning fikrlashiga doimiy faollik bag'ishlab turuvchi keng ko'lamdagi bilishga chanqoqlikdir.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning usullari har qancha xilma-xil bo'lishiga qaramay, ularning barchasi uchun taalluqli bo'lgan bir qator umumiy qoidalari ham bor. Shulardan birinchisi – qobiliyatni o'stirishda muayyan bir maqsad ko'zlanishi lozim. Avvalo, qobiliyatlar qaysi sohaga qaratilganligini aniqlashni, qaysi birlarini qanday usulda o'stirish zarurligini belgilab olish kerak. Shaxsning barcha psixologik sifatlarini, binobarin qobiliyatlarini ham faoliyat o'stirishini, hisobga olsak, qobiliyatlar faoliyat uchun keraklidir. Zotan, “Suzishni o'rganmoqchi bo'lsang, suvga tush” degan maqol faqat shu manoda aytilgan.

Kishi qobiliyatini o'stirish yuzasidan o'zi bajaradigan ishlarining ahamiyatini yaxshiroq tushungani sari, bu ishlarni bajarish jarayonida unda tegishli qobiliyatlarning hosil bo'lishi ham yaxshilanib boradi. Odam biror-bir xoh katta bo'lsin, xoh kichik vazifani amalga oshirgan taqdirdagina unda shaxsiy sifatlar barkamollashib boradi. Odam o'z



zimmasiga yuklatilgan ishni bajarishda bu ishdan ko'zlangan maqsadni oldindan biladi va anglab turadi. Amaliy hatti-harakatlarning ongli bo'lishi esa, odatda, mazkur ishni muvaffaqiyatliroq bajarish uchun faol kirishishga undaydi.

Barcha qobiliyatlar rivojlanishi jarayonida qator bosqichlar bosib o'tadi, bu esa ayrim qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlab kishida muayyan layoqat bo'lishi kerak³. O'zaro ta'sirchanlik, y'ani faoliyat, muloqot jarayoni serqirra shaxs qobiliyati taraqqiyotining muqim qismi qisoblanadi. Inson faqat birgina faoliyat turi bilan emas, balki faoliyatning turlicha xillari bilan shug'ullanib, unga berilgan topshiriqlar muttasil ravishda murakkablashtirib, jumboqlashtirilib borilsa, unda psixologik sifatlarning hosil qilinishi samarali bo'ladi. Sodda, oson topshiriqlar qobiliyatlarni o'stirmaydi. Shaxsning qobiliyatni o'stirish uchun unga beriladigan topshiriqlar hamisha uning kuchiga mos kelishi: garchi qiyin bo'lsa ham, uning o'z kuchiga ishonchini yo'qotishiga majbur etadigan, zo'riqtirib qo'yadigan bo'lmasligi kerak.

Odamda qobiliyat va iste'dodni vujudga keltirish uchun foydalaniladigan vositalarning tez-tez takrorlanib turishi va tizimli bo'lishi, ularni rivojlantirishning muhim omillaridir. Takrorlash faqat bilim olishning emas, balki tarbiyalashning ham sababchisidir. Ammo eng muhimi insonda o'z qobiliyat va iste'dodlarini takomillashtirish uchun istak bo'lishi va unga erishishga qat'iyat bilan kirishmog'i kerak. Zero, benihoya zakovat egasi bo'lgan qobiliyatli, iste'dodli shaxs ijodi jamiyat uchun tarixiy va albatta ijobiy ahamiyatga ega. Uning o'z faoliyati sohasida yangi davr yaratishi bilan o'lchanadi. Bu dahoga tenglashtirilib, u ijtimoiy taraqqiyotning mavhum masalalarini eng maqbul yo'sinda hal qilishga yordam ko'rsata bilishda ifodalanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni – 2020 yil 23-sentabr
2. Nishonova Z., Qurbonova Z. Psixodagnostika va eksperimental psixologiya. "Tafakkur bo'stoni" T.: 2011.
3. Xalilova N.I., Iqtidorli bolalar psixologiyasi (ma'ruzalar matni). T.:2010.